



# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## DEMOGRAFIK HOLATI

*2024-yil  
yanvar-dekabr*



## SURXONDARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2025-yil 1-yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Surxondaryo viloyatida 2025-yil 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni **2945,5** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **68,4** ming kishiga yoki **2,4 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1064,1** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,1 %**), qishloq aholisi soni **1881,4** ming kishi (**63,9 %**) ni tashkil etdi.

Viloyat ma'muriy-hududiy jihatdan 1 ta viloyat bo'ysunuvidagi shahar va 14 ta tumanga bo'lingan, aholi zichligi 1 kv. km ga 146,5 kishiga to'g'ri keladi.

Ma'muriy markazi – Termiz shahri bo'lib, aholisi 207,3 ming kishi.

### Doimiy aholi soni

**2945,5**

ming kishi

### Tabiiy o'sish

**+71,4**

ming kishi

### Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

#### Shahar joylarda



**1064,1** ming kishi

#### Qishloq joylarda




**1881,4** ming kishi

### Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2025-yil 1-yanvar holatiga

#### Erkaklar


**50,6 %**



**1490,9** ming kishi

#### Ayollar

**49,4 %**



**1454,6** ming kishi


## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

*1-yanvar holatiga, ming kishi*

	2023-yil	2024-yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>2 877,1</b>	<b>2 945,5</b>	<b>102,4</b>
Termiz sh.	201,6	207,3	102,8
tumanlar:			
Oltinsoy	192,6	197,4	102,5
Angor	143,8	147,0	102,2
Bandixon	83,0	85,3	102,8
Boysun	124,6	127,1	102,0
Muzrabot	153,6	156,8	102,1
Denov	420,2	430,5	102,5
Jarqo'rg'on	238,4	244,0	102,3
Qumqo'rg'on	255,5	261,6	102,4
Qiziriq	124,0	126,9	102,3
Sariosiyo	228,0	232,9	102,1
Termiz	84,7	87,2	103,0
Uzun	187,8	192,4	102,4
Sherobod	210,8	214,9	101,9
Sho'rchi	228,6	234,2	102,5

## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi


*1-yanvar holatiga, ming kishi*



Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2025-yil 1-yanvar holatiga, eng ko'p aholi soni Denov tumanida 430,5 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi (14,6 %) va Qumqo'rg'on tumanida 261,6 ming kishini (8,9 %), Jarqo'rg'on tumanida 244,0 ming kishi (8,3 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 85,3 ming kishini (2,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati yil boshiga nisbatan soni Denov tumanida 10,3 ming kishi (2,5 %) va Qumqo'rg'on tumanida 6,1 ming kishini (2,4 %), Jarqo'rg'on tumanida 5,6 ming kishi (2,3 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 2,3 ming kishini (2,8 %) tashkil etdi.

## Surxondaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar 2024-yil yanvar-dekabr, dastlabki ma'lumotlar



## Viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati (yanvar-dekabr)

	<i>kishi</i>			<i>1000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2023-yil</i>	<i>2024-yil</i>	<i>o'sish, kamayish, +,-</i>	<i>2023-yil</i>	<i>2024-yil</i>
Tug'ilganlar	87695	84054	-3641	30,9	28,9
O'lganlar	13507	12621	-886	4,8	4,3
Nikohlar	24874	23263	-1611	8,8	8,0
Ajralishlar	3047	2893	-154	1,1	1,0
Ko'chib kelganlar	9997	10839	842	3,5	3,7
Ko'chib ketganlar	13556	13857	301	4,8	4,8

**Tug'ilish.** 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 84,0 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va keyinchalik tirik tug'ilganlar inobatga olinadi), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 28,9 promilleni tashkil etdi hamda 2023-yilning mos davriga nisbatan -2 promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 30,9 promille bo'lgan).

*Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.*




## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Hududlar kesimida tug‘ilganlar sonining  
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi,  
(yanvar-dekabr holatiga, kishi)**

	2023-yil	2024-yil*	+/-
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>87695</b>	<b>84054</b>	<b>-3641</b>
Termiz sh.	5459	5168	-291
tumanlar:			
Oltinsoy	5904	5871	-33
Angor	4187	3903	-284
Bandixon	2756	2668	-88
Boysun	3602	3512	-90
Muzrabot	4430	4282	-148
Denov	13269	12754	-515
Jarqo‘rg‘on	7869	7079	-790
Qumqo‘rg‘on	7860	7613	-247
Qiziriq	3780	3768	-12
Sariosiyo	6767	6417	-350
Termiz	2767	2766	-1.0
Uzun	5771	5657	-114
Sherobod	6105	5615	-490
Sho‘rchi	7169	6981	-188

## Hududlar kesimida tug‘ilishlar soni va tug‘ilish koeffitsiyenti (2024-yil yanvar-dekabr)




**Tabiiy o‘sish.** 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o‘sishi 71,4 ming kishini (2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 74,2 ming kishi) tashkil etdi.



## Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha

2024-yil yanvar-dekabr

Jamiga nisbatan ulushi,  
% da



**Vafot etganlar.** 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 12,6 mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 4,3 promilleni tashkil etdi, 2023-yilning mos davriga 4,8 promille bo‘lgan.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 12,6 ming nafar o‘lim qayd etilgan bo‘lib, vafot etganlarning 58,1 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,1 % i xafvli o‘simtalardan, 4,8 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,1 % i ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 9,5 % i nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 0,7% i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 15,7 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**Hududlar kesimida vafot etganlar sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi**  
(yanvar-dekabr holatiga)

Hududlar	2023-yil	2024-yil*	O'sish sur'ati +:-
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>13507</b>	<b>12 621</b>	<b>-886</b>
Termiz sh.	1038	931	-107
tumanlar:			
Oltinsoy	874	781	-93
Angor	775	636	-139
Bandixon	433	306	-127
Boysun	606	576	-30
Muzrabot	692	638	-54
Denov	1 912	1 842	-70
Jarqo'rg'on	1 176	1 142	-34
Qumqo'rg'on	1 109	1 074	-35
Qiziriq	680	512	-168
Sariosiyo	812	930	118
Termiz	460	512	52
Uzun	816	761	-55
Sherobod	1 036	1 011	-25
Sho'rchi	1 088	969	-119


**Hududlar bo'yicha nikoh tuzganlar sonining  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi  
(yanvar-dekabr)**



Hududlar	2023-yil	2024-yil*	O'sish sur'ati +:-
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>24 874</b>	<b>23 263</b>	<b>-1 611</b>
Termiz sh.	1 382	1 324	-58
tumanlar:			
Oltinsoy	1 777	1 646	-131
Angor	1 150	1 070	-80
Bandixon	799	759	-40
Boysun	1 056	965	-91
Muzrabot	1 321	1 204	-117
Denov	3 609	3 456	-153
Jarqo'rg'on	2 292	2 090	-202
Qumqo'rg'on	2 289	2 117	-172
Qiziriq	1 070	1 022	-48
Sariosiyo	1 893	1 692	-201
Termiz	825	799	-26
Uzun	1 586	1 523	-63
Sherobod	1 653	1 646	-7
Sho'rchi	2 172	1 950	-222



## Hududlar bo'yicha nikoh tuzganlar soni va nikoh koeffitsiyenti kishi (2024-yil yanvar-dekabr)



■ Nikohlar soni


■ Nikohlar koeffitsiyenti

**Hududlar bo'yicha nikohdan ajralishlar sonining  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi  
(yanvar-dekabr)**

Hududlar	2023-yil	2024-yil*	O'sish sur'ati +/-
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>3 047</b>	<b>2 893</b>	<b>-154</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>317</b>	<b>265</b>	<b>-52</b>
tumanlar:			<b>0</b>
Oltinsoy	180	197	17
Angor	169	138	-31
Bandixon	89	71	-18
Boysun	129	110	-19
Muzrabot	177	152	-25
Denov	458	469	11
Jarqo'rg'on	236	227	-9
Qumqo'rg'on	239	249	10
Qiziriq	103	105	2
Sariosiyo	246	233	-13
Termiz	108	117	9
Uzun	171	160	-11
Sherobod	224	187	-37
Sho'rchi	201	213	12

Ajrim koeffitsientida aksariyat tumanlarda o‘tgan yilga nisbatan kamayish kuzatildi. O‘tgan yilga nisbatan kamayish Uzun tumani (0,1 promillega), Oltinsoy tumani (0,1 promillega), Angor tumani (0,3 promillega), Boysun tumani (0,1 promillega) kuzatildi.


### Hududlar bo‘yicha nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti (2024-yil yanvar-dekabr kishi, promille)



## Aholi migratsiyasi (kishi)

2024-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 10,8 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 13,8 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 3 ming kishi bo'lib, 2023-yilning mos davrida minus 3,5 ming kishi bo'lgan.

**2023-yil**  
yanvar-dekabr



**2024-yil**  
yanvar-dekabr



 **Ko'chib kelganlar**       **Ko'chib ketganlar**       **Migratsiya saldosi**



## Hududlar kesimida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni (2024-yil yanvar-dekabr uchun, kishi)

Hududlar	Ko‘chib kelganlar soni	Ko‘chib ketganlar soni	Migratsiya saldosı
<b>Surxondaryo viloyati</b>	10 839	13 857	-3 018
Termiz sh.	3 506	1 997	1 509
<i>tumanlar:</i>			0
Oltinsoy	274	585	-311
Angor	660	735	-75
Bandixon	317	397	-80
Boysun	338	794	-456
Muzrabot	481	950	-469
Denov	709	1 352	-643
Jarqo‘rg‘on	685	993	-308
Qumqo‘rg‘on	602	999	-397
Qiziriq	380	732	-352
Sariosiyo	216	797	-581
Termiz	1 268	990	278
Uzun	383	684	-301
Sherobod	524	1 002	-478
Sho‘rchi	496	850	-354



### **Demografik ko'rsatkichlarga izohlar**

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.



## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining oʻrtacha soniga boʻlib, 1000ga koʻpaytirish orqali hisoblanadi.

**Koʻchib kelganlar soni** – koʻchib kelganlarning absolyut miqdori, yaʼni muayyan hududga uning tashqarisidan koʻchib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi boʻyicha roʻyxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish soʻrovnomalarini qayta ishlash natijasida koʻchib kelish.

**Koʻchib ketganlar soni** – koʻchib ketganlarning absolyut miqdori, yaʼni muayyan hududga uning tashqarisidan koʻchib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi boʻyicha roʻyxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish soʻrovnomalarini qayta ishlash natijasida koʻchib ketish.

**Aholining migratsion oʻsishi (farqi)** – hisobot davrida koʻchib kelganlar va koʻchib ketganlar soni oʻrtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi**  
**Demografiya mehnat va gender statistikasi boʻlimi**  
**Tel: (76) 225-65-60**